

KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH

Karimova Muyassarxon Abduqayumovna – f.f.n.

Andijon mashinasozlik instituti “ Gumanitar fanlar ” kafedrası dotsenti

karimova@gmail.com, +998932534155

Shermatova Shaxlo Ismoiljon qizi – Magistr

Andijon mashinasozlik instituti

email: shahloshermatova48@gmail.com tel: 91-060-71-17

ANNOTATSIYA

Kambag'allikning yuqori darajasi ham jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga sababdir. Bu, eng avvalo, hukumatga ishonchning kamligi va kam daromadli guruhlarning mavjud muammolarini hal qilishga qodir emasligi bilan bog'liq. Mazkur maqolada kambag'allikni kamaytirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: kambag'allikni kamaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish.

АННОТАЦИЯ

Высокий уровень бедности также является причиной роста социальных конфликтов в обществе. В первую очередь это связано с недоверием к правительству и его неспособностью решить существующие проблемы малообеспеченных слоев населения. В данной статье описаны социально-философские основы сокращения бедности.

Ключевые слова: сокращение бедности, развитие предпринимательства.

ANNOTATION

The high level of poverty is also the reason for the increase of social conflicts in the society. This is primarily due to the lack of trust in the government and its inability to solve the existing problems of low-income groups. This article describes the socio-philosophical foundations of poverty reduction.

Keywords: poverty reduction, entrepreneurship development

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 27- fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha videoselektor yig'ilishida kambag'allik darajasi chuqurlashib ketganligini aytib, "...biz shu paytgacha aksariyat fuqarolarimiz haqiqatan ham kambag'al ekanini ko'rib-ko'rmaslikka, eshitib-eshitmaganlikka oldik. Bu noto'g'ri. Afsuski, dastlabki hisobkitoblarga ko'ra, xalqimizning to'rt-besh foizi kambag'al ekani aniqlandi. Endi yashirish kerak emas, og'ir sharoitlarda yashayotgan odamlarimizning asl muammosi, vaziyatini tushunishimiz, barcha toifadagi rahbarlar dunyoqarashimizni o'zgartirishimiz lozim bo'ladi" deya ta'kidlab o'tdi .[1]

Agar biz aholining turli qatlamlarini birlashtirilgan resurs ta'minoti ko'rsatkichlarini hisoblab chiqishga harakat qiladigan bo'lsak, kambag'allarda biron-bir resurs yetishmasligi manzarasi yanada ravshanroq bo'ladi va mamlakatning iqtisodiy holatida yaxshilanish bu kambag'allik holatini avtomatik ravishda yaxshilamasligi aniqroq bo'ladi. Shunday qilib, "daromadlar kambag'alligi" ni emas, balki haqiqiy kambag'allik bilan kurashish muammosi, bir tomondan, ularni sarflash xususiyatlari va boshqa tomondan mavjud resurslarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishdir. Bu esa birxillikdan uzoq bo'lgan hamda ijtimoiy siyosatning tubdan farq qiladigan oqibatlarini keltirib chiqaradigan kambag'allik sabablarini batafsil tushunish zarurligini anglatadi. Kambag'allikning ikkinchi eng muhim salbiy oqibatlaridan biri bu aholi sog'lig'ining yomonlashishi. Hayotning past darajasi past daromadli guruhlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Balanssiz va yetarli darajada ovqatlanmaslik, gigiyena me'yorlarining yo'qligi, kam ta'minlangan fuqarolarga tibbiy xizmatni o'z vaqtida olish yoki samarali dori-darmonlarni olishga imkon bermaydigan moliyaviy resurslarning yetishmasligi, bularning barchasi kam ta'minlanganlar orasida kasalliklarning ko'payishiga olib keladi. Kambag'allik alkogolizm va giyohvandlikning o'sishiga ham bevosita ta'sir qiladi. Umuman olganda, ish topishni orzu qilgan va yashash imkoniyati bo'lmagan odamlar axloqiy ko'rsatmalarini juda ko'p marta o'zgartiradilar.[2]

Bu esa o'z navbatida, turli xil deviant xatti-harakatlarga olib keladi, ularning eng jiddiy shakllaridan biri ichkilikbozlik va giyohvand moddalarni iste'mol qilishdir. Giyohvandlikning ko'payishi va turli yuqumli kasalliklarning ko'payishiga yordam beradi, chunki giyohvandlar orasida yuqumli kasalliklarni yuqtirish xavfi juda katta. Kambag'allikning xavfli oqibatlaridan biri – aholining umumiy ma'lumot darajasi pasayishi. Daromadlari past bo'lgan ota-onalar ko'pincha o'z farzandlarini o'qish uchun zarur bo'lgan narsalar bilan to'liq ta'minlay olmaydilar: o'quv qurollari, kiyim-kechak va oddiy ovqatlanish. Oddiy o'rta maktablarda ko'plab o'qituvchilar malakasining pastligi jiddiy muammo hisoblanadi. Jamiyatimizda kambag'al odamlarning ko'p bo'lishi bir qator ijtimoiy demografik oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ular orasida, birinchi navbatda, mehnatga layoqatli aholining qishloq joylardan shaharlarga o'zo'zidan ko'chib ketishi. Hozirda ushbu tendensiya namoyon bo'lmoqda. Bunday ichki migratsiyaning asosiy sabablaridan biri qishloq joylarida ish o'rinlarining yetishmasligi. [3]

Kambag'allikni qisqartirish masalasi bugungi islohotlarning asosini tashkil etadi. Chunki ushbu muammoning hal etilishi mamlakatimiz iqtisodiyoti va xalqimiz farovon hayotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. *Xo'sh, kambag'allikni qisqartirish choralari o'zi nimalardan iborat? Aholining ehtiyojmand qatlami qanday moliyaviy ko'maklar vositasida qo'llab-quvvatlanadi? Davlat dasturlari ijrosini ta'minlashda qanday muammolar mavjud va ularning yechimi nimalarda*

ko'rinadi? Avvallari "kambag'allik" so'zi taomilimizda bo'lmagan. O'tgan besh yillikda esa kambag'allikni qisqartirish tendensiyasi bilan bog'liq qator ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin rivojlangan xorijiy davlatlarda birinchi o'rinda aholining kam ta'minlangan qatlamiga moliyaviy ko'mak berish chora-tadbirlari ko'rilgan.[4]

Mamlakatimizda ham bu borada xorijiy tajribalar o'rganilib, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan milliy dasturlar ishlab chiqildi. Masalan, 2018 yildan boshlab hududlarda aholini tadbirkorlikka jalb qilish va shu orqali yangi ish o'rinlari yaratish maqsadida «Har bir oila – tadbirkor» dasturi joriy etildi. 2018-2021 yillarda oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida qariyb bir million oilaga 23,7 trillion so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilgani bu ishlar ko'lami kengayayotgani va uning natijasi samarali ekanidan dalolat beradi. 2018-2021 yillarda «Yoshlar – kelajagimiz» dasturi hamda boshqa oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 25 ming nafar yoshga berilgan 1,8 trillion so'm miqdoridagi imtiyozli kreditlar ularning biznes loyihalarini ro'yobga chiqarish va daromad manbalarini yaratish uchun dastlabki kapital sifatida xizmat qilgan. Koronakrizis davrida «Temir daftar», «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» kabi manzilli dasturlar aholining kambag'al qatlamini qo'llab-quvvatlashda muhim choralar bo'ldi, deyish mumkin. Xususan, 2021 yil 1 noyabr holatiga, «Ayollar daftari»ga kiritilgan 65,2 ming nafar xotin-qizlarga 973,6 milliard so'm, «Yoshlar daftari»ga kiritilgan 56,6 ming nafar yoshlarga 1,3 trillion so'm, «Temir daftar»ga kiritilgan 5,7 ming nafar fuqaroga 94,4 milliard so'm miqdorida imtiyozli kreditlar yo'naltirilgan. Hukumat qaroriga muvofiq, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida «Mehr daftari» joriy qilingani ham bu boradagi tizimli ishlar bilan mushtarakdir. Unga ko'ra, bolalar ushbu daftarga tuman yoki shahar hokimi qarori asosida kiritiladi va undan 25 yoshga to'lganda chiqariladi. Bunda daftardan chiqarilayotgan shaxslarning bandligi ta'minlangan va uy-joyi mavjud bo'lishi shart. Kambag'allikni qisqartirish borasida bir mamlakat tajribasini boshqa mamlakatda aynan qo'llash imkoniyati, ya'ni yagona formulaning mavjud emasligi O'zbekistonda ham xalqaro tajribani inobatga olgan holda, aholining ehtiyojmand oilalari juda ko'plab.

Dastlabki bosqichda dastur doirasida kredit mablag'lari hisobidan faqatgina hududiy komissiyalar tomonidan tasdiqlanadigan ta'minotchilardan mahsulot sotib olish belgilangan edi. Taklif cheklanganligi, raqobatning mavjud emasligi sharoitida talabning oshishi, dasturlar doirasida xarid qilinadigan ayrim tovarlar narxining bozor qiymatidan yuqori sotilishi, sifati pastligi kabi bir qator muammolarni yuzaga keltirdi. Bu, o'z navbatida, dastur doirasida ajratilayotgan imtiyozli kreditlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ikkinchi bosqichda mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida hududiy komissiyalar tomonidan ta'minotchilarni belgilash amaliyoti bekor qilindi hamda imtiyozli kreditlar tovarlar shartnoma asosida kelishilgan narxda yetkazib berilgandan

va loyiha egasi undan qanoatlanish hosil qilganidan so'ng mahsulot yetkazib beruvchining hisobraqamiga o'tkazib berilishi belgilandi. Mazkur bosqichda ichki bozorda yuzaga kelgan ortiqcha bosimni kamaytirish maqsadida naslli chorva mollarini faqat ularni import qiluvchi ta'minotchilardan sotib olish tartibi joriy etildi. Oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo'yicha mahsulot sotib olish, kredit ajratish va undan foydalanishda inson omili, ta'minotchilar o'rtasida raqobatning pastligi mavjud. Imtiyozli kreditlarning maqsadsiz yoki noo'rin ishlatilishi kabi muammolarga duch kelayapmiz. Bu kabi muammolar esa dasturning samarali bo'lishiga salbiy ta'sir etadi. Shundan kelib chiqib, bunday muammolarning saqlanib qolayotganligi dastur samaradorligini yanada oshirish bo'yicha muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qildi.[5]

Uchinchi bosqichda asosiy e'tibor oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo'yicha kredit ajratishda banklardagi inson omilini yo'qotish, shaffoflikni oshirishga qaratildi. Xususan, oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo'yicha «Yagona elektron platforma» (www.oilakredit.uz) joriy etilib, kreditlar bo'yicha ariza qabul qilish jarayoni to'liq raqamlashtirildi. Bugungi kunda mazkur platforma samaradorligini yanada oshirish maqsadida kredit arizalarini barcha bosqichlarda onlayn ko'rib chiqish hamda ajratilgan kreditlar hisobiga tovar va xizmatlarni bozor tamoyillari asosida erkin sotib olish yoki sotish Yagona elektron platformada yaratilgan «marketpleys» tizimi yordamida amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Bu, o'z navbatida, ta'minotchilar o'rtasida raqobatni oshirish va imtiyozli kreditlar hisobiga sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxini pasaytirish, yetishtirilgan mahsulotlarini respublikaning istalgan hududida sotish imkonini beradi.

Bundan tashqari, imtiyozli kreditlardan yanada samarali foydalanish orqali aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish maqsadida har bir mahallada hokim yordamchisi lavozimi joriy etildi. Hokim yordamchisi lavozimida faoliyat ko'rsatayotgan xodim oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kredit, subsidiyalar va boshqa moliyaviy yordamlar ajratish uchun xulosa berish vakolatiga ega.[6]

Kelgusida ushbu tizimni takomillashtirib borib, tadbirkorlikni kreditlash jarayonlari to'liq bozor asoslariga o'tiladi. Bunda aniq yo'nalishlar bo'yicha ajratilgan kreditlar foizlarining bir qismini davlat tomonidan kompensatsiya qilib berish mexanizmidan foydalanish imkoniyati saqlanib qolinadi. Albatta, bu borada har bir ajratilayotgan kompensatsiyaning maqsadli ishlatilishi va shaffofligini, eng muhimi, samaradorligini oshirish bo'yicha choralar kuchaytiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi. 25.01.2020-y.
2. R.Xasanov, B.Usmonov O'zbekistonda kambag'allik va uni qisqartirish yo'llari – <https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-kambagallik-va-uni-qisqartirish-yollari>
3. Lin (2003), Economic Growth, Income Inequality, and Poverty Reduction in People's Republic of China, Asian Development Review, vol. 20, no. 2, 2003, pp. 105-24
4. HBhanumurthy and HMITra (2004), Economic Growth, Poverty, and Inequality in Indian States in the Pre-reform and Reform Periods, Asian Development Review, vol. 21, no. 2, 2004, pp. 79-99
5. Arndt, James, and Simler (2006), Has Economic Growth in Mozambique Been Pro-Poor?, Food Consumption and Nutrition Division Discussion Paper 202
6. Oecd.org. 2022. Growth. [online] Available at: <<https://www.oecd.org/derec/unitedkingdom/40700982.pdf>> [Accessed 11 September 2022].